

<https://doi.org/10.47100/conferences.v1i4.879>

PHRASEOLOGICAL ANTHROPONYMS IN GERMAN AND THEIR SEMANTICAL PROPERTIES

Eshnazarov Jahongir Abubakir o'g'li

Toshkent Davlat Agrar Universiteti

“Xorijiy tillar” kafedrası o'qıtuvchısı

jahongiresnazarov@mail.ru

+99894 650-60-26

Ilmdan yaxshiroq xazina bo'lmas,

Qo'lingdan kelgancha tera olsang bas.

Rudakiy

Annotatsiya. Ushbu maqolada hozirgi kundagi nemis tilidagi frazeologik antroponimlarning o'zbek tiliga tarjima qilish masalalari o'rganilgan. Shuningdek, bu maqolada frazeologik antroponimlar kelib chiqishiga ko'ra guruhları ajratib berilgan va semantik xususiyatlari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: frazeologizm, idioma, frazeologik antroponimlar, semantik xususiyatlar, metonimiya, metafora.

Annotation. This article examines the translation of modern German phraseological anthroponyms into Uzbek. This article also distinguishes groups according to the origin of phraseological anthroponyms and reveals their semantic features.

Keywords: phraseology, idiom, phraseological anthroponyms, semantic features, metonymy, metaphor.



Аннотация. В статье исследуется перевод современных немецких фразеологических антропонимов на узбекский язык. В статье также выделяются группы по происхождению фразеологических антропонимов и раскрываются их семантические особенности.

Ключевые слова: фразеология, идиома, фразеологические антропонимы, семантические особенности, метонимия, метафора.

Nemis frazeologiyasi boy va uzoq tarixga ega. Bu frazeologizmlar ko'plab unsurlardan iborat, shulardan biri frazeologizmlarda antroponimlarning qo'llanishidir. Nemis tilida tadqiqot obyektlari va til materiallari yordamida frazeologik antroponimlarni o'rganish va tadbiiq qilish maqsadli yo'naltira boshlandi. Frazeologik antroponimlar ikkita kelib chiqish sabablari asosida bir necha guruhlarga bo'linadi. Bu sabablar quyidagilar [3.170]:

I. Real hayotda mavjud bo'lgan shaxslar ismlari bilan bog'liq bo'lgan frazeologizmlar - **Tantalusqualen erdulden (schreckliche Schmerzen, auch furchtbare Angst ausstehen müssen)**, nach dem phrygischen König aus der griechischen Sage, der in der Unterwelt unter ständigem Durst und Hunger litt, da das Wasser und die Früchte, die ihn umgaben, vor seinen Berührungen zurückwichen.

II. Real hayotda mavjud bo'lmagan shaxslar yoki o'ylab topilgan ismlar bilan bog'liq frazeologizmlar – **Frau Holle schüttelt ihre Betten aus (es scheint, die weißen Flocken fallen)**. Bu frazeologizm xalq og'zaki ijodida va aka – uka Grimm ertaklarida qo'llangan. Holle bu ayollar ismi bo'lib real hayotda bo'lmagan, o'ylab topilgan ayol ismi hisoblanadi.

Nemis tilida ushbu kelib chiqish asosida va tarkibiga qarab frazeologik antroponimlar bir necha guruhlarga bo'linadi [1.96-98]:

1. Nemis milliy ismlari qo'llangan frazeologizmlar: - **für den alten Fritzen (umsonst, vergeblich)** bu frazeologizmda **Fritz** ismi qo'llangan bo'lib, bu ism nemis milliy ismlaridan biri hisoblanadi va “arzon, behuda foydasiz” degan ma'noni bildiradi.



2. Tarkibida chet el ismlari qo'llangan nemis tilidagi idioma va frazeologizmlar: - **Winston Churchill besuchen (auf die Toilette gehen)**

3. Antik davr afsona va ertaklardagi qahramon ismlari qo'llangan frazeologizmlar: - **von Amors Pfeil getroffen sein (verliebt sein)** bu frazeologizmda **Amor** ismi qo'llangan bo'lib bu ayol ismi rim afsonalarida sevgi mabudasi hisoblanadi.

4. Bibliyada keltirilgan ismlar qo'llangan ibora va frazeologizmlar: - **der wahre Jakob (das einzig Rechte, das wirklich Gute/ Schöne)** bu frazeologizmda Jakob ismi qo'llangan. Jakob Johanning akasi bo'lib Jususning eng yaqin odamlaridan biri bo'lgan.

5. Jahon adabiyoti namunalarida keltirilgan ismlar qo'llangan frazeologizmlar: - Bunday frazeologizmlarda Jahon klassikasining namunalaridan foydalanilgan bo'lib, lekin bu frazeologizmlar nemis tilida paydo bo'lgan ya'ni chetdan kirib kelmagan frazeologizmlar hisoblanadi. Misol qilib W. Shekspirning „Hamlet“ dramasidan olingan **Was ist ihm Hekuba?(ihm ist alles absolut egal)** frazeologizmini keltirishimiz mumkin. Hekuba bu ayol kishining ismi bo'lib Hekuba troyanlarning malikasi bo'lgan. Bu malika hamma narsaga befarqlik bilan qaraganligi uchun ushbu frazeologizm kelib chiqqan.

6. Tarixiy xodisa, voqea va dunyoga mashhur hazillar qo'llangan idioma va frazeologizmlar: - **Das Ei des Kolumbus (die überrschend einfache Lösung einer Schwierigkeit)** bu yerda Amerikani kasb qilgan sayohatchi **Kolumbning** ismi qo'llangan. Kolumb o'zi bilmagan holda Amerikani yaratgani uchun ushbu frazeologizmning ma'nosi ham qiyinchilikning kutilmagan oddiy yechimi degan ma'noda qo'llaniladi.

K.Földesning fikricha: “Entsprechend Thema und Charakter unserer Ausführungen gebührt den anthroponomischen Einheiten der ersten Gruppe das Hauptaugenmerk. Diese Ausdrücke sind sowohl in Anbetracht der Herkunft des deutschen Personen Name als auch bezüglich ihrer Struktur recht heterogen. Unter



genetisch– etymologischem Aspekt können hier folgende Haupttypen festgestellt werden“ [3.176-177]

Aniq faktlar, voqealar va nemis xalqining tarixida boʻlgan shaxlar ismlari qoʻllangan idioma va frazeologizmlar: - **dazu hat Buchholtz kein Geld (mutig drauflosgehen)** Bu frazeologizm yetti yillik urush davrida kelib chiqqan boʻlib Buchholtz ismli shaxs Prusiya qiroli Friderih Wilhelm I ning qammitbaho narsalari qoʻriqchisi boʻlgan. Fridrih qimmatbaho narsalaridan foyfalanish maqsadida pul soʻrasa har doim shu javobni qoʻllagan, qimmatbaho narsalari boʻlsa ham unda pul boʻmaganligini aytgan [2. 127-128].

Nemis tilida frazeologik antroponimlar tarkibida qoʻllangan ismlarning bir qancha ekvivalentlari yani frazeologik antroponimlari mavjud. Masalan **Hans** ismiga, *Hans im Glück(Glückspilz)*, *dummer Hans (dummer Mensch)*, *der Blanke Hans (die stürmische Nordsee)*, *etwas ist Hans was Heiri (das kommt auf das Gleiche hinaus; etwas ist egal)*, *Was Hänschen nicht lernt, lernt Hans nimm er mehr (In der Jugend lernt man besser als im Alter) Hanswurst (dummer Mensch, jdn, den man nicht ernst nehmen kann)* kabi oltitadan ortiq frazeologizmlar uchraydi.

Bundan tashqari **Mariä** ismiga, *Mariä Empfängnis (Geld)*, *dicke Mariä (viel Geld)*, *linke Mariä (Falsch Geld)*. **Wilhelm** ismiga, *falscher Wilhelm (Perücke, unechtes Haarteil)*, *den dicken Wilhelm spielen* kabi frazeologizmlar ham uchraydi.

Ushbu ismlardan tashqari *Grete*, *Otto*, *Peter* ismlariga uch va undan ortiq frazeologizmlar uchraydi. Buning sababi shundaki bu ismlarning kelib chiqishi uzoq tarixiy davrni tashkil qiladi va bu ismlar nemis xalq milliy ismlari hisoblanadi, shuning uchun bu ismlarga koʻplab frazeologizmlar uchraydi. Bu frazeologik antroponimlarning maʼnosi bir biridan keskin farq qilmaydi, chunki frazeologizmda qoʻllangan ism egasi bitta shaxs va shundan kelib chiqqan holda har xil davrda har xil frazeologizmlar paydo boʻlgan [5.23-24].

Nemis tilidagi frazeologik antroponimlarning semantik xususiyatlari

Nemis tili boy frazeologizmga ega boʻlib, lekin bunda frazeologik antroponimlar koʻpchilikni tashkil qilmaydi. Frazeologik antroponimlarning



semantik xususiyati deganda biz ularni ma'no jihatdan tahlil qilishimiz va ma'noviy xususiyatlarini yoritib berishimiz lozim. Frazeologik antroponimlarning semantik rang – barangligi, ma'no mazmun jihatidan bir biriga mos kelishi ham ularning alohida xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Nemis tilida frazeologik antroponimlar ko'pincha ma'no jihatdan bir biriga mos kelavermaydi, sababi shundaki frazeologizmlarda shaxs ismlari qo'llanganligi va bu ismlar orqali frazeologizmlarning ma'nosini tushunib olishimizdadir [6. 34]. Frazeologizmlarda qo'llangan antroponimlarda ularni eshitganda tasavvurda o'sha odam prototipi yaratiladi va ko'z o'ngimizda tasavvur hosil bo'ladi. Ushbu holat semantik xususiyatlarini ochib berishda katta yordam beradi. Frazeologik antroponimlarda ma'nolarning ko'chishi

1. Metafora nisbiy o'xshashlikka ega bo'lgan ikki predmetdan birining nomi bilan ikkinchisini ham atash hodisasidir.

Die, eine Möglichkeit der Phraseologisierung der Personen Name darstellt, ist wohl die typischste Art der Sinnübertragung (Nazarov Kambarali 1978, 34)

Misol qilib frazeologik antroponimlardan biri bo'lgan **“David und Goliath” (der Große und der Kleine)** bu yerda katta va kichik aniqlovchisini antroponim orqali berilgan. Yana bitta frazeologizmlardan biri **Krethi und Plethi (viele Leute verschiedenen Standes)** da ham ma'noni antroponim orqali tushintirib yoki ochib berilgan.

2. Metonimiya. Narsa va hodislarning bir-biriga bog'liqligi asosida bir predmet nomi bilan ikkinchisini ifoda etishdir. Metonimiyada ikki predmet o'rtarida hech qanday o'xshashlik bo'lmaydi, lekin ular orasida bog'liqlik bo'ladi.

Die metonymischen Übertragungen als eine Art der Phraseologisierung der Personen Name kommen in der deutschen Sprache im Vergleich zu den metaphorischen verhältnismäßig selten vor [4, 35]

“Blauer Anton“ (Montaueranzug, Arbeitsanzug des Maschinisten), „falscher Wilhelm“ (Perücke, unechtes Haarteil) ushbu frazeologik



antroponimlarda va ma'nosida hech qanday o'xshashlik ham yo'q lekin bog'liqlik bor ya'ni frazeologizmdagi sifat ularning bog'liqligini ko'rsatib beradi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki frazeologik antroponimlarning semantik xususiyatlari, frazeologizmda qo'llangan ismlar va ikkinchi darajali bo'laklar orqali ochib beriladi. Semantik rang – baranglik frazeologizmining ta'sirchanligini va ma'noning mazmun jihatdan bir – biriga mos kelishini ta'minlagan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Burger H. Phraseologie. Eine Einführung am Beispiel des Deutschen. Berlin 1998
2. Fleischer W. Phraseologie der deutschen Gegenwartssprache. Leipzig, 1982
3. Földes K. Antrophonyme als Strukturkomponenten deutscher Phraseologismen.
4. Nazarov.K Deutsch-usbekisch-russisches Phraseologisches Wörterbuch. Taschkent 1994.
5. Palm C. Phraseologie. Eine Einführung. Tübingen. 1995
6. Imyaminova Sh.S. Nemis tili frazeologiyasi. Toshkent. Mumtoz so'z, 2011

